



## IQTISODIY TARMOQLARNING RIVOJLANISHIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINING ZARURLIGI VA AFZALLIKLARI

*PhD Qodirov Jasurbek Sharofitdinovich*  
"O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati  
ORCID: 0009-0003-1710-7648  
[bek-maf@mail.ru](mailto:bek-maf@mail.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada davlat-xususiy sherikligining iqtisodiy tarmoqlarning rivojlanishida zarurligi va afzalliklari ifodalangan hamda iqtisodchi olimlarning yondashuvlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot mavzusi bo'yicha eng dolzarb muammolarni aniqlash maqsadida ilmiy tadqiqot davriy nashrlarining tahlili ham amalga oshirilgan. Shuningdek, DXShning asosiy belgilari va uning loyihalarini amalga oshirishda davlat va biznesning maqsadlari hamda hissalarini tahlil qilingan. Shu bilan birgalikda, DXSh munosabatlari doirasida dinamik ochiq ijtimoiy-iqtisodiy tizimda iqtisodiy o'sish omillarining ta'siri modeli tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** DXSH (davlat-xususiy sheriklik), sanoat korxonalari, investitsiya, biznes, resurslar, ijtimoiy-iqtisodiy tizim.

## НЕОБХОДИМОСТЬ И ПРЕИМУЩЕСТВА ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЕРСТВА В РАЗВИТИИ ОТРАСЛЕЙ ЭКОНОМИКИ

*PhD Кадыров Жасурбек Шарофитдинович*  
Акционерное общество «Узбекистон темир йуллари»

**Аннотация.** В статье рассматриваются необходимость и преимущества государственно-частного партнерства в развитии секторов экономики, а также рассматриваются подходы экономистов. Также был проведен анализ научно-исследовательской периодики с целью выявления наиболее актуальных вопросов, связанных с темой исследования. Также были проанализированы основные особенности ГЧП, цели и вклад государства и бизнеса в реализацию их проектов. При этом была проанализирована модель влияния факторов экономического роста в динамической открытой социально-экономической системе в рамках отношений ГЧП.

**Ключевые слова:** ГЧП (государственно-частное партнерство), промышленные предприятия, инвестиции, бизнес, ресурсы, социально-экономическая система.

## THE NEED AND BENEFITS OF PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIPS IN THE DEVELOPMENT OF ECONOMIC SECTORS

*PhD Kadirov Jasurbek Sharofitdinovich  
Joint-stock company "O'zbekiston temir yo'llari"*

**Abstract.** *This article describes the necessity and advantages of public-private partnership in the development of economic sectors and examines the approaches of economists. In order to identify the most pressing problems on the topic of the study, an analysis of scientific research periodicals was also carried out. The main features of PPP and the goals and contributions of the state and business in the implementation of its projects were also analyzed. At the same time, a model of the influence of economic growth factors in a dynamic open socio-economic system within the framework of PPP relations was analyzed.*

**Keywords:** *PPP (public-private partnership), industrial enterprises, investment, business, resources, socio-economic system.*

### **Kirish.**

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda va dunyoda davlat va xususiy biznes o'rtasidagi munosabatlarni faollashtirish tendentsiyasi kuchayib bormoqda, bu esa o'z navbatida iqtisodiy muammolarni birgalikda hal qilish imkonini yaratadi. Davlat va xususiy kompaniyalar, banklar, xalqaro moliyaviy tashkilotlar va boshqa subyektlar o'zaro hamkorlik qilib, yangi vazifalarni birgalikda hal qilmoqdalar. Shu bilan birga, davlat ijtimoiy funksiyalarni bajarishga, umumxalq manfaatlarini amalga oshirishga intilsa, biznes foyda va qiymatni oshirish manbalarini izlamoqda. Chuqur ijtimoiy o'zgarishlar va silkinishlarsiz turli mulkchilik shakllarining afzalliklaridan turli xil shakl, usul va davlat-xususiy sheriklik modellarida foydalanish mumkin bo'lmoqda.

Zamonaviy tushunchada DXSH (davlat-xususiy sheriklik) – bu davlat (yoki mahalliy hokimiyat) va biznesning institutsional hamda tashkiliy ittifoqi bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalar va dasturlarni amalga oshirish maqsadida har ikkala tomonning moddiy va nomoddiy resurslarini o'zaro manfaatli shartnomaviy asosda birlashtirishni nazarda tutadi. Ushbu hamkorlik sanoatning asosiy tarmoqlari va ilmiy-tadqiqot ishlaridan tortib, jamoat xizmatlarini ko'rsatishgacha bo'lgan keng faoliyat sohaslarini qamrab oladi (Варнавский, 2010).

Davlat va biznes o'rtasidagi o'zaro hamkorlik shakli ilmiy-ekspert adabiyotida bir qator atamalar bilan ifodalanadi: «davlat-xususiy sheriklik», «ommaviy-xususiy sheriklik», «ijtimoiy-xususiy sheriklik», «xususiy-davlat sherikligi». Sheriklik nomida davlat yoki biznesning birinchi o'ringa kelishi, qo'shma loyihalarni amalga oshirishda qaysi subyekt etakchi va tashabbuskor ekanligini ta'kidlaydi (Марковская и др., 2020).

### **Adabiyotlar sharhi.**

DXSh – davlat va biznesning o'zaro manfaatli shartlar asosida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni hal etish uchun o'rta va uzoq muddatli o'zaro xatti-harakatlarning bir qator shakllari hisoblanadi. DXSh asosida korporativ boshqaruvni takomillashtirish bo'yicha olib borgan tadqiqotlarimiz natijalariga ko'ra, bugungi kunda jahon amaliyotida DXShining aniq bir ta'rifi bo'yicha yagona to'xtamga kelinmagan.

Keng ma'noda aytganda, DXSh, odatda, davlat va xususiy sektorning o'rta va uzoq muddatli kelishuvi bo'lib, unga ko'ra, ijtimoiy sektorga tegishli, davlat sektorining zimmasida bo'lgan ayrim xizmatlar aynan aniq infratuzilmasi yoki xizmatlari bilan xususiy sektor tomonidan ta'minlanadi. DXShga, qoida tariqasida, davlat buyurtmalari bo'lgan servis shartnomalari yoki qurilish-pudrat shartnomalari hamda ijtimoiy sektorning roli cheklangan xususiylashtirish jarayonlari kiritilmaydi. Shuningdek, «DXSh atamasi hamjamiyat doirasida ham aniqlanmagan. Umumlashtirib aytganda, mazkur atama davlat hokimiyati bilan biznes

o'rtasidagi moliyalashtirishni ta'minlash, qurilish, modernizatsiyalash, boshqarish yoki infratuzilmani saqlab turish yoki xizmatlarni taqdim qilish bo'yicha o'zaro kooperatsiyaga tegishli» deb qaraladi (Law, 2004).

Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqining mintaqaviy siyosat bo'yicha komissiyasi «DXShni an'anaviy tarzda davlat sektori tomonidan amalga oshirilib kelingan va moliyalashtirilgan investitsiya loyihalarining xususiy sektorga berilishidir» deb ta'riflaydi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan esa, «DXSh – davlat sektori tomonidan ishlab chiqariladigan va taqdim qilinadigan xizmatlarni moliyalashtirishni, rejalashtirishni, amalga oshirishni va obyektlarni ishlatishni maqsad qilib qo'yadi hamda uning asosiy xususiyatlari xizmatlarni xususiy sektorga uzoq muddatli taqdim qilinishini ta'minlash (ba'zan 30 yilgacha), risklarni xususiy investorga o'tkazish, davlat va mahalliy tuzilmalar bilan huquqiy shaxslarning ko'p qirrali uzoq muddatli shartnoma shakllarini amalga oshirilishi bilan farqlanadi» deb ta'rif beriladi (OOH, 2008).

Osiyo taraqqiyot banki tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, «DXSh atamasi infratuzilma yoki boshqa xizmatlar kesimida ijtimoiy va xususiy tashkilotlar o'rtasidagi mumkin bo'lgan barcha munosabatlar diapazonini ifodalaydi» (ADB, 2006). Bundan tashqari, AQSh Federal transport bo'limining DXSh bo'yicha Kongressga bergan hisobotida «DXSh an'anaviy ishtirokiga nisbatan xususiy sherikka davlat bilan munosabatlarda ko'proq ishtirok qilishiga imkon beruvchi shartnomaviy kelishuv bo'lib, mazkur kelishuv, odatda, hokimiyat organi bilan xususiy kompaniya o'rtasida modernizatsiyalash, qurilish, ishlatish, muayyan obyekt, tizimni saqlash yoki boshqarishni nazarda tutadi» deb keltiriladi (Report, 2004).

Hindiston hukumati tomonidan esa «DXSh – bu hukumat yoki ijtimoiy sektor tomonidan xususiy kompaniyalar bilan foydalanuvchilardan to'lovlar undirish evaziga infratuzilma xizmatlari bilan ta'minlashga qaratilgan shartnomaviy yoki konsession kelishuv loyihasidir» deb ta'riflanadi (Guidelines, 2006).

Britaniya Kolumbiyasi va Kanada hamkorligi doirasida «DXSh – davlat hamda biznes tomon o'rtasidagi aktivlarni yaratish va xizmatlarni taqdim qilish uchun qonunga ko'ra majburiy shartnoma bo'lib, u tomonlar o'rtasida risk va majburiyalarni taqsimlashni o'rnatadi» deb talqin qilinadi (Partnershipsbc.ca., 2003).

Avstraliya hukumati esa «DXSh – davlat va xususiy sektorning davlat topshirig'iga ko'ra infratuzilma va boshqa xizmatlarni taqdim etish bo'yicha xususiy sektorga puli to'lab beriladigan topshirig'i bo'lib, odatda, u butun xususiy sikl davomida infratuzilmani qurgan xususiy sektorga faoliyat ko'rsatishi, saqlanishi kabi vazifalarni yuklaydi» (Overview, 2008). Yangi Zelandiyada «...obyekt yoki aktivni yaratish yoki mavjudlarini rekonstruksiya qilishni va xizmatlar ko'rsatishni nazarda tutuvchi uzoq muddatli shartnomalardir» (Guidance, 2009) deb DXSh ta'rifi qabul qilingan.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**


Ushbu maqolaning ilmiy-nazariy asosi sifatida iqtisodiy adabiyotlar hamda ilmiy maqolalar, xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning davlat-xususiy sherikchilik asosida amalga oshirilayotgan unvestitsion loyihalar va ulardan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy izlanishlari, ularning qiyosiy tahlili tashkil etadi. Mavzuni yoritish jarayonida induksiya va deduksiya, mantiqiy, statistik kuzatish, guruhlash kabi usullardan foydalanildi. Shu bilan bir qatorda iqtisodchi olimlarning fikrlari t-jadvalidan foydalani DXSh tushunchasi solishtirma tahlilidan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

O'zaro hamkorlikning asosi ishtirokchilarning maqsadlarini muvofiqlashtirishdan iborat. Agar biznes davlat-xususiy sheriklikda ishtirok etishdan foyda olish, kapital qiymatini oshirish va o'z obro'sini mustahkamlashni kutsa, davlat o'z vazifalarini hal qilish doirasida xizmatlar sifatini yaxshilash va ularning hajmini oshirishga, davlat mulkini oqilona boshqarishga intiladi.

Davlat tomonidan hal qilinadigan vazifalar aholini joriy xizmatlar bilan ta'minlashga ham, mamlakat iqtisodiyotini (xo'jaligini) istiqbolli rivojlantirishga, jumladan innovatsion yo'nalishlarni rivojlantirishga, infratuzilmaning mavjudligini ta'minlashga qaratilgandir.

Tomonlar o'ziga xos xususiyatlari va maqsadlariga muvofiq ravishda qo'shma loyihalarga ma'lum hissa qo'shadilar. Biznesdan moliyaviy resurslar, professional tajriba, innovatsion texnologiyalar va samarali menejment taqdim etilishi kutiladi. Davlat esa loyihalarning ishonchligini kafolatlar, soliq va boshqa imtiyozlar hamda ma'lum darajada o'z moliyaviy resurslarini taqdim etish orqali ta'minlaydi (1-rasm).



**1-rasm DXSh loyihalarini amalga oshirishda davlat va biznesning maqsadlari va hissalari**

*Manba: muallif ishlanmasi.*

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) umuman olganda, iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmani uzoq muddatli rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, jamiyat uchun muhim loyihalarni amalga oshirishda minimal tavakkalchilik va yuqori sifat talablarini ta'minlash bilan birga, davlat xarajatlarini joriy davrda kamaytirishga yordam beradi. Agar davlat biznes bilan o'zaro munosabatlarini faqat soliq munosabatlari shaklida emas, balki DXSh shaklida tashkil qila olsa, biznesning resurslari, jumladan samarali ish uslublari, texnika va texnologiyalar, ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi shakllari, etkazib beruvchilar va pudratchilar bilan aloqalar, yuqori malakali kadrlar bevosita davlat belgilagan sohalarga jalb etilishi mumkin.

DXShning o'ziga xos ta'siri shundaki, davlat o'z faoliyatining e'tiborini ob'yektlar qurilishi va ekspluatatsiyasi bilan bog'liq aniq muammolarni hal qilishdan ko'ra, nazorat va boshqaruv funksiyalariga qaratadi. DXSh loyihalari doirasida ijro etuvchi funksiyalar biznesga topshirilgan ekan, davlat idoralari nazorat, tartibga solish va jamiyat manfaatlarini himoya qilish vazifalariga e'tibor qaratadi. Bunda operatsion tadbirkorlik tavakkalchiligi biznes zimmasiga yuklanadi, davlat esa strategik tavakkalchiliklarni o'zida saqlab qoladi.

DXShning maqsadga muvofiqligi va ba'zi hollarda uning zarurati shunday vaziyatlarda paydo bo'ladiki, bu paytda davlat o'z zimmasiga olgan majburiyatlar va belgilangan rejalarning zaruriy sifat darajasida bajarilishi uchun etarli mablag' va resurslarga (moliyaviy, vaqt, tashkiliy-boshqaruv) ega bo'lmaydi. Ko'pincha, an'anaviy hisoblangan ayrim sohalardagi

funksiyalarni xususiy biznesga topshirish orqali davlat eng dolzarb muammolarni hal etishga e'tibor qaratish imkoniga ega bo'ladi.

Davlat va xususiy kapitalning ijtimoiy muammolarni hal qilishdagi hamkorligi dunyoda bir necha asrga borib taqaladi. Shu bilan birga, "davlat-xususiy sheriklik" (Public-Private Partnership, PPP) atamasi ancha keyin paydo bo'lgan. Bu tushuncha dastlab AQShda davlat va xususiy sektor tomonidan ta'lim dasturlarini moliyalashtirish bilan bog'liq holda shakllangan. Keyinchalik, XX asrning 50-yillarida jamoat foydalanishidagi ob'yektlarni moliyalashtirish bilan bog'liq ravishda qo'llanilgan, 1960-yillarga kelib esa davlat-xususiy hamkorlikdagi shaharlarni rekonstruksiya qilish bilan shug'ullanuvchi korxonalariga nisbatan ishlatila boshlangan.

G'arbiy Yevropada birinchi hamkorlikdagi investitsiyalar DXSH shaklida XVI asrga borib taqaladi. Shunda Fransiyada Genrix II podshoh davrida Salon-de-Provens shahridagi kanal qurilgan, bu tarixda birinchi DXSH loyihasi deb hisoblanadi(1552). Davlat va biznesning birgalikdagi loyihalari Fransiyada keyinchalik rivojlandi. Masalan, XIX asrda Parijda Eiffeli minorasining paydo bo'lishi ham davlat-xususiy moliyalashtirishining natijasi bo'ldi. DXSHning yana bir shakli XVII asrning o'rtalarida davlat vakolatlarini amalga oshirish uchun xususiy investitsiyalarni ruxsat berish bilan bog'liq mashhur tarixiy misol bilan bog'liqdir. Shu davrda Buyuk Britaniyaning davlat byudjetida mamlakat ichki yo'l tarmog'ini rivojlantirish uchun etarli mablag'lar yo'q edi. Bunga echim sifatida, xususiy tadbirkorlarga o'z mablag'lari bilan yo'llar va ko'priklar qurish imkoniyatini berishva bu orqali to'lov olinardi (Сухих и др., 2013).

Davlat organlari faqat qurish uchun ruxsatnomalar berish bilan cheklanib, qurilishga qiziqish bildirgan va o'z mablag'lariga ega bo'lgan shaxslar uchun imkoniyatlar yaratdi. Davlat va xususiy shaxslar o'rtasidagi o'zaro aloqaning tarixiy namunasi, davlat obyektlari va funksiyalarini xususiy boshqaruvga topshirish (xususiy investitsiyalarni amalga oshirmasdan) ancha qadimgi davrlarga borib taqaladi.

Xorijliklarga berilgan konventsional Sovet Ittifoqida yangi iqtisodiy siyosat va sanoatlashuv davrida keng tarqalgan. 1920-yillarda konventsional deyarli barcha sanoat tarmoqlarida tuzilgan. Yangi sovet zavodlarining loyihalash va qurilish ustidan nazorat qilish ko'p jihatdan xorijiy firmalar bilan tuzilgan konventsion kelishuvlar hisobiga amalga oshirilgan. Ushbu konventsionalarning 80 foizdan ko'pi oltin, kumush, qo'rg'oshin, marganets, neft qazib olish, rangli metallarning ishlab chiqarilishi, o'rmon va baliq resurslarini ekspluatatsiya qilish, mashinasozlik, elektroenergetika va boshqa sohalarida jamlangan. Bugungi kunda juda kam odam biladi, lekin 1920-yillarda xorijiy konventsional katta shaharlar (masalan Moskva)da shahar infratuzilmasi va kommunal xo'jalik sohalarida keng tarqalgan (Министерство, 2014). Sovet Ittifoqida yangi iqtisodiy siyosat davrida Bosh konventsional komiteti faoliyat yuritgan bo'lib, u mamlakatdagi barcha konventsion faoliyatni boshqargan va yo'naltirgan.

Tarixiy nuqtai nazardan davlat va yirik xususiy kapitalning o'zaro ta'siri, davlat buyurtmalarini bajarish, davlat loyihalarini moliyalashtirish, ba'zi vakolatlarini amalga oshirish — keng tarqalgan amaliyotdir. Shuningdek, bunday o'zaro ta'sirning kengaygan davrlari va keyinchalik qisqargan davrlari ajralib turadi. Davlat va biznesning umumiy vazifalarni hal qilish uchun keng vaqtda o'zaro faoliyat yuritishi amaliyoti, Ikkinchi Jahon urushidan keyingi G'arbiy Yevropa uchun xos bo'lgan bir davr hisoblanadi. Yiqilgan uy-joylar va shahar infratuzilmasi, sanoat obyektlarini tiklash uchun katta mablag'lar asosan amerikalik kreditorlar va investorlar tomonidan xususiy kreditlar hamda qarzlilar sifatida taqdim etilgan. Keyinchalik, 1960-yillarda, shunday mexanizmlar AQShda ham uy-joylarni rekonstruksiya qilishda qo'llanilgan.

Xususiy-xususiy hamkorlikning so'nggi rivojlanish bosqichi, uning zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas instituti sifatida shakllanishi 1990-yillarga to'g'ri keladi. 1980-yillarda (M.Tetxerin boshchiligidagi davr) davlat mulkini privatizatsiya qilishda muvaffaqiyatli tajribalardan so'ng, Buyuk Britaniya hukumati 1992-yilda yangi siyosatning ko'rsatmalarini e'lon qildi, bu siyosat xususiy kapital va tashabbuslarning qo'llanilishini kengaytirishni davom ettirdi. Buyuk Britaniyaning "xususiy moliyalashtirish tashabbusi" (Private Financing Initiative, PFI) nomi bilan tanilgan xususiy hamkorlik shakli, yirik davlat ob'yektlarini qurish uchun



xususiy kapitalni ishlatishdan iborat, ya'ni xususiy kompaniyalar davlat ob'yektlarini qurishda o'zlarining tashkiliy imkoniyatlaridan foydalanib, byudjet mablag'larini jalb qilmasdan amalga oshiradi. Xususiy investorlar uchun qiziqish, keyinchalik qurilgan ob'ektdan foydalanish yoki ma'lum bir muddat davomida byudjetdan keladigan to'lovlar orqali xarajatlar va daromadlarni qoplashdir.

Ko'plab hollarda, xususiy moliyalashtirish tashabbusida investor ob'yecktini keyingi foydalanishi va faoliyatini tashkil etishda ham ishtirok etadi, hattoki xodimlarni yollashgacha. Xususiy moliyalashtirish tashabbusi ob'yektlari sifatida infratuzilma ob'yektlari (shu jumladan, avtomobil va temir yo'llar), maktablar, kasalxonalar va hatto qamoqxonalar bo'lishi mumkin.

Amerika Qo'shma Shtatlari va Yevropa davlatlarida DXSh bir qator tipik shakllarga bo'linib, davlat va biznes o'rtasidagi o'zaro aloqalar mexanizmlarini aks ettiradi, bu iqtisodiyot, ijtimoiy xizmatlar, innovatsiyalar, shuningdek, fan, madaniyat va siyosat sohalarida yuz beradi. DXSh doirasida davlat va biznes o'rtasida majburiyatlar hamda vakolatlarni taqsimlashning asosiy tendentsiyasi davlatdan xususiy sektorga mulk va boshqaruv huquqlarini uzoq muddatga o'tkazishga qaratilgan. Shuningdek, davlat-xususiy kompaniyalarga yoki ularning assotsiatsiyalariga ekspertiza, maslahat xizmatlarini taqdim etish, normativ-huquqiy hujjatlar, maqsadli dasturlarni ishlab chiqishda funktsiyalarni topshiradi.

DXShning asosiy belgilari quyidagilardan iborat (Марковская, 2020):

- DXSH tomonlari davlat organlari va xususiy kompaniyalar hamda institutlardir;
- tomonlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar DXSH rasmiy hujjatlarida (kelishuvlar, shartnomalar, kontraktlar va boshqalar) mustahkamlanadi va ular uzoq muddatli xarakterga ega;
- DXSH aniq belgilangan ijtimoiy va jamoat ahamiyatiga ega bo'lgan maqsadga ega bo'lib, bu maqsadni amalga oshirishda davlat o'z vakolatlarini (huquqlari) va funktsiyalarini xususiy sherikka topshiradi;
- tomonlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar jamiyat (davlat) va xususiy biznes manfaatlarini hisobga olishi kerak, ya'ni hamkorlik, teng huquqlilik, muvozanat va manfaatlar balansiga erishishga intilishi kerak;
- zamonaviy DXSH loyihalarida tomonlarning aktivlari (resurslar va investitsiyalar) konsolidatsiya qilinadi va birlashtiriladi (bu «buyurtmachi — pudratchi» munosabatlaridan farq qiladi);
- moliyaviy xarajatlar va risklar, shuningdek, DXShda erishilgan natijalar tomonlar o'rtasida o'zaro kelishuvlarga muvofiq taqsimlanadi va bu kelishuvlar, shartnomalar, kontraktlar va boshqalarda qayd etiladi.

Mamalakatimizda davlat-xususiy hamkorlikning chet elda keng tarqalgan shakl va mexanizmlarining hammasi sinovdan o'tkazilmagan. Shunga qaramay, ilmiy adabiyotlarda davlat-xususiy hamkorlik muammolari 2000-yillarning boshlaridan boshlab faol o'rganilmoqda, 2019-yil mayda davlat-xususiy sheriklik to'g'risida qonun qabul qilindi. Yuqoridagi fikr mulohazalarni inobatga olib, "davlat-xususiy sheriklik" tushunchasining bir nechta ta'riflarini ifodalandi(1-jadval).

Shunday qilib, DXSh (Davlat-xususiy sheriklik) bu davlat va biznes o'rtasidagi hamkorlik bo'lib, iqtisodiyotga xususiy investitsiyalarni jalb qilish, davlat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan tovarlar, ishlar, xizmatlar mavjudligini ta'minlash va ularning sifatini milliy, mintaqaviy va mahalliy darajalarda yaxshilash maqsadida amalga oshiriladi.

Dunyo bo'ylab DXSh, davlat byudjetidan sarflanadigan sohalarning bir qismi sifatida qaraladi — umumiy foydalanish ob'yektlari (transport, kommunal, ijtimoiy infratuzilma, madaniyat ob'yektlari, tarixiy va arxitektura yodgorliklari va h.k.), shuningdek, "jamoat xizmatlari" (public services) — umumiy foydalanish ob'yektlarini ta'mirlash, rekonstruktsiya qilish va saqlash, hududlarni tozalash, kommunal xizmatlar, ta'lim, sog'liqni saqlash, sport va boshqalar. Bugungi kunda, DXSh innovatsion loyihalar va innovatsion infratuzilmani moliyalashtirishda kengroq qo'llanilmoqda. Davlat mas'uliyatining boshqa sohalarda —

mudofaa, huquqni muhofaza qilish, fundamental fan, qonun chiqaruvchi faoliyat va ba'zi boshqa sohalarda esa DXSh ancha kamroq qo'llanilmoqda.


## 1-jadval

## Davlat-xususiy sheriklik ta'riflari

Ta'rif	Muallif
DXSh — davlat sherigi va xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun o'z resurslarini birlashtirishiga asoslangan hamkorligidir.	O'zbekiston Respublikasining Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida Qonuni (Lex.uz, 2019)
DXSh — bu jamoat va xususiy tomonlar o'rtasida infratuzilma xizmatlarini ishlab chiqish va ko'rsatish bo'yicha qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish maqsadida, shuningdek, byudjet moliyasining samaradorligini oshirish vositasi sifatida tuziladigan kelishuvlar.	The World Bank Group
DXSh — ma'lum muddatga huquqiy tarzda rasmiylashtirilgan va resurslarni birlashtirish, xavflarni taqsimlash asosida jamoat hamkori bir tomondan, xususiy hamkori esa boshqa tomondan amalga oshiriladigan hamkorlik bo'lib, bu, davlat organlari va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan tovarlar, ishlar, xizmatlar mavjudligini ta'minlash va ularning sifatini oshirish maqsadida, shuningdek, iqtisodiyotga xususiy investitsiyalarni jalb etish maqsadida, DXSh shartnomasi, munitsipal-xususiy hamkorlik shartnomalari asosida amalga oshiriladi.	Rossiya Federatsiyasining Federal qonuni (Закон, 2015)
DXSh — davlat va xususiy sheriklar har bir tomon o'z manfaatlari, o'z maqsadlari va o'ziga xos vazifalarni hal qilish asnosida birlashgan faoliyat turidir. DXShni amalga oshirishda moliyaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy afzalliklar mavjuddir.	Qodirov (2022)
DXSh— bu davlat va biznes o'rtasidagi institutiyaviy va tashkiliy ittifoq bo'lib, milliy va xalqaro, keng ko'lamli va mahalliy, lekin doimo ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan. Bu strategik ahamiyatga ega sanoat tarmoqlari va ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini rivojlantirishdan tortib, jamoat xizmatlarini ta'minlashgacha bo'lgan keng doiradagi faoliyatlarni o'z ichiga oladi.	Варнавский (2010)
DXSh — bu davlat organlari va xususiy biznesning ittifoqi bo'lib, uning maqsadi ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni — iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan milliy miqyosda yoki alohida hududlarda xizmatlar ko'rsatishgacha bo'lgan loyihalarni yaratish va rivojlantirishdir.	Кабашкин (2017)

*Manba:* muallif ishlanmasi.

Bir qator mamlakatlar (asosan Buyuk Britaniya va AQSh) eng katta jamoat funksiyalarini xususiy qo'llarga o'tkazish uchun davlat-xususiy sheriklik (DXSh) orqali berishga tayyor. Bu jarayonni yarim-xususiylashtirish (semi-privatization) deb atashdi va DXShning keng tarqalishini shu bilan bog'lashadi. Bu DXShni davlat va xususiy mulk o'rtasidagi o'rta shakl sifatida va shuningdek, xususiylashtirishga alternativa sifatida ko'rishga asos bo'ladi. Davlat va biznes sub'yektlari o'rtasida DXSh doirasidagi uzoq muddatli, ishonchli munosabatlar, o'zaro bog'liqlikni va ma'lumot almashishni intensivlashtiradi. Shu bilan davlat va biznes sub'yektlari kommunikativ jihatdan faol bo'ladi. Davlat institutlari va biznes tuzilmalarining o'zaro munosabatlari doirasida DXSh mexanizmlaridan to'g'ri foydalanish orqali iqtisodiy o'sishning ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi potentsial omillarining ketma-ketligi bo'yicha "ideal" (nisbatan past tranzaksiya va korrupsion xarajatlar hamda cheklovlar bilan) modelni qurish mumkin (2-rasm).



**2-rasm. DXSh munosabatlari doirasida dinamik ochiq ijtimoiy-iqtisodiy tizimda iqtisodiy o'sish omillarining ta'siri modeli (Radushinskiy, 2017)**

“Aloqa” – “sheriklik” aloqasi doirasida ikkita muhim xususiyatni ta’kidlash kerak.

1. Ikki tomonlama tashabbus. Sub’yektlarining yuqori darajadagi erkinligi davlat va biznesning qo’shma loyihalarni boshlash jarayonini tabiiy qiladi. Shu bilan birga, zamonaviy DXSh qonunchiligida, masalan, xususiy tashabbus (unsolicited proposals) mexanizmi ko’zda tutilgan bo’lib, bu mexanizm xususiy investorlarning tashabbuslari bilan ishlash tartibini belgilaydi.

2. DXSh shakli va mohiyati. Davlat va biznesning hamkorligi (amerikalik institutsionalist Gelbreytning “texnostruktura” atamasida) turli shakllarda bo’lishi mumkin, jumladan DXSh, uzoq muddatli davlat buyurtmasi munosabatlari va boshqa shakllari mavjuddir. Bundan tashqari, bunday hamkorlik aslida o’z funktsiyalarini davlat tuzilmalari, shuningdek, jamoat xizmatlarini ko’rsatish bilan shug’ullanuvchi notijorat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilish shaklida namoyon bo’ladi.

### Xulosa va takliflar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo’lsak, davlat-xususiy sheriklik (DXSH) iqtisodiy tarmoqlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu sheriklik davlat va xususiy sektorning resurslari va tajribalarini birlashtirib, infratuzilma loyihalarini amalga oshirish, xizmatlarni yaxshilash va iqtisodiy o’sishni rag’batlantirish imkonini beradi.

Shuningdek, DXSH infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish va amalga oshirish orqali iqtisodiy o’sishni rag’batlantirishga yordam beradi. Shu bilan birgalikda xususiy sektorning tajribasi va innovatsion loyihalarni boshqarish hamda amalga oshirishda samaradorlikni oshirishga yordam beradi. DXSh xatarlarni davlat va xususiy sektor o’rtasida taqsimlash imkonini beradi, bu esa loyihalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilish ehtimolini oshiradi.

Hamkorlikning mohiyati esa mutaxassis institutlar tomonidan vakolatlarni amalga oshirishning optimal yo’lini izlashga qaratilgandir. Barcha hollarda jamoat xizmatlarini taqdim etish “jamoat shartnomasi” asosida quriladi, bunda “asos” sifatida biznesdan olingan



daromadlarning qismi soliq sifatida yig'ilishi, "ustunlik" sifatida esa ularni keyinchalik samarali tarzda qayta taqsimlash DXSh shakllari yoki davlat va notijorat tashkilotlari xizmatlari orqali amalga oshiriladi.

#### **Adabiyotlar /Литература/Reference:**

- ADB (2006) *Public-Private Partnerships Handbook*. Asian Development Bank. 2006.
- Guidance (2009) *Treasury National Infrastructure Unit, Guidance for Public Private Partnerships (PPPs) in New Zealand* (Wellington, 2009).
- Guidelines (2006) *Guidelines for Financial Support to Public Private Partnerships in Infrastructure*, Government of India.
- Law (2004) *Green Paper on Public-Private Partnerships and Community Law on Public Contracts and Concessions*. Brussels. 30.04.2004. P.3.
- Lex.uz. (2019). ЎРҚ-537-сон 10.05.2019. Давлат-хусусий шериклик тўғрисида. [online] Available at: <https://lex.uz/docs/4329270?ONDATE=29.11.2023%2001>
- Overview (2008) *National Public Private Partnership Guidelines Overview*, Australian Government, Dec. 2008. [http://infrastructureaustralia.go.au/public\\_private/files/](http://infrastructureaustralia.go.au/public_private/files/).
- Partnershipsbc.ca. (2003) *An Introduction to Public Private Partnerships*, Partnerships British Columbia, Canada, 2003. <http://www.partnershipsbc.ca/pdf/An%20>.
- Qodirov J. Sh. (2022). *Theoretical and methodological basis of the effect of public-private partnership on increasing investment capacity*. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(8), 134–140. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/W4CBT>
- Radushinskiy D. A. (2017) *Davlat-xususiy hamkorlikning yangi sanoat iqtisodiyoti innovatsion loyihalarini amalga oshirishdagi roli //Forsayt «Rossiya»: yangi sanoat jamiyati. Qayta yuklash: Sankt-Peterburg xalqaro iqtisodiy kongressi materiallari to'plami (SPEK-2017); umumiy tahririyat: S. D. Bodrunov. B. 845-854.*
- Report (2004) *Report to Congress on Public Private Partnerships*. U.S. Department of Transportation, Federal Highway Administration, December p. 10.
- Варнавский В. Г. (2010) *Партнерство государства и частного сектора: формы, проекты, риски*. М. : Наука.
- Варнавский.В.Г. (2010) *Партнерство государства и частного сектора: формы, проекты, риски*. Москва: Наука.
- Закон (2015) *О государственном-частном партнерстве, муниципально-частном партнерстве в Российской Федерации и внесении изменений в отдельные законодательные акты Российской Федерации (Закон о ГЧП): Федеральный закон Российской Федерации от 13.07.2015 № 224-ФЗ // Российская газета. 17.07.2015.*
- Кабашкин.В.А. (2015) *Государственно-частное партнерство: международный опыт и российские перспективы*. М.: ООО «МИЦ», С. 120.
- Марковская Е. И. и др. (2020) *Механизмы государственно-частного партнерства. Теория и практика: учебник и практикум для вузов / под общей редакцией Е. И. Марковской. — Москва: Издательство Юрайт, образование). — Текст: непосредственный. 491 с.*
- Министерство (2014) *Практика применения концессионных соглашений для развития региональной инфраструктуры в России / Министерство экономического развития Российской Федерации. М., 2014. URL: <http://economy.gov.ru/mines/activity/sections/privgovpartnerdev/2014112710>*
- ООН (2008) *Практическое руководство по вопросам эффективного управления в сфере ГЧП/ Организация Объединенных Наций. — Нью-Йорк и Женева, 2008. ISBN: 978-92-1-4160403.*
- Сухих В. А., Руденко М. Н., Оборина Е. Д. (2013) *К вопросу о понятии и сущности государственно-частного партнерства // Научно-технические ведомости СПбГПУ. № 2. С. 97.*